

## TO`QIMACHILIK VA YENGIL SANOATDA YANGI TEXNOLOGIYA VA YANGI MATERIALLAR

*Ibragimov Otabek Ergashboy o'g'li*

*Guliston Davlat Universiteti, Ishlab chiqarish fakulteti*

*Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi*

*(ishlab chiqarish turlari bo'yicha) texnologiyasi yo'nalishi*

*2- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada to`qimachilik hamda yengil sanoat sohasidagi yangi texnologiyalar, xalqaro standartlarning kelib chiqishi, tendensiyalar muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** yengil sanoat, standart, tarmoq, to`qimachilik, material.

### KIRISH

Yengil sanoat eng yuqori rivojlangan mamlakatlardan biri Germaniya hisoblanadi. Germaniyaning Kyoln shahri yengil sanoatning poytaxti bo`lib, u yerda turli dasturlar doimiy amalga oshiriladi. Kyolnda har 3 yilda bo`lib o`tdigan IMB yarmarkasi tikuvchilik va u bilan bog`liq bo`lgan sanoat tarmoqlari mutaxassislari uchun asosiy uchrashuv joyi ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Birinchi yarmarka 1973 yilda o`tkazilgan. To`qimachilik materiallarini qayta ishlashdagi barcha qo`llanilish sohalari uchun yagona bo`lgan takliflar 40 ta mamlakatdan 600 dan ortiq firmalarning, 400 dan ortiqxorijiy ishtirokchilarning Kyolnga kelishlariga sabab bo`ldi. Barcha ishtirokchilarning  $\frac{1}{4}$  qismidan ortiqrog`i ilk bor texnik to`qimachilik materiallarini qayta ishlash uchun ishlanmalarini taklif etdilar.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Barcha to`qimachilik materiallari uchun modellashtirish va texnologiyalarning ko`plab sohaslarida yetakchi o`rinlarda turgan Yevropada, so`nggi yillarda, texnik to`qimachilik materiallarga bo`lgan munosabatda jiddiy o`zgarishlar ro`y berdi<sup>1</sup>.

Eng yuqori talablar qo`yilgan mahsulotlarni funkcionallashtirish bo`yicha zamonaviy ishlanmalar va yangi qo`llanilish sohaslarining ochilishi tikuvchilik sanoatidagi egiluvchan (elastik) materiallarni qayta ishlash to`g`risidagi klassik bilimlarini shu yangi mahsulotlarga qaratilishiga olib keldi.

Ular sotilishining yetakchi bozori bo`lgan Yevropada bu mahsulotlar ulushi 25 foizdan ortiq bo`ldi. To`rt kun davom etgan yarmarka yangi ko`rgazma xonalarining jozibadorligi va 115 mamlakatdan kelgan 25 mingga yaqin tashrif buyurganlar ishtiroki tufayli ijobiy baholanishga muvaffaq bo`ldi. Albatta ishtirokchilarning

<sup>1</sup> Жабборова М.Ш. -Тикувчилик технологияси|| -Т.: -Ўқитувчи||, 2014.

aksariyati uchun **texnik yangiliklar** va **takomillashtirish**larni izlash birinchi o`rinda turdi. Yarmarka tikuvchilik ishlab chiqarishning barcha soha (tarmoq)lari uchun mutaxassislarni xursand qiladigan yechimlarni taklif etdi va bu yechimlarning muhim mezonlari **xarajatlar samaradorligi** va **sifatning** yuqori darajasi bo`ldi.

Inqilobiy texnologiyalar namoyish etilmadi, ammo ko`plab texnik mukammal mashinalarni va muammolar yechimlarini, detallarga va innovatsion yondoshuvlarga bo`lgan katta e`tiborni ko`rsa bo`lar edi. Mijozlarga qaratilgan va yaxshilangan servis bilan birlashtirilgan innovatsiyalar umumiy manzarani ifoda etadilar va tashrif buyurganlar so`rovi 90 foizga yaqin ishtirokchilar yangilik-topilmalardan katta qoniqish hosil qilganligini ko`rsatdi. Mahsulotlar, mashinalar va qurilmalarga daxldor ishlanmalarning qo`llanilish sohasining klassik tikuvchilik sanoatidan texnik to`qimachilik materiallarini qayta ishlash sohasiga ko`chib o`tishi, takliflar spektri tufayli aniq ko`rinib turibdi. **Bichiqnlarni yaratishda va vizualizatsiyada uch kordinatalik innovatsiyalar.** Birlamchi namuna va moslashtirilgan shaklni tashqi ko`rinishi va matoning o`zini tutishini hisobga olgan holda bichish texnologiyasini takomillashtirishga va real voqe`likka yuqori darajada yaqinlik bilan erishish, inson tanasining yoki avtomobil o`rindig`ining virtual tasavvur etilishi sodir bo`ladi. Bunda ikki kordinatalik bichilgan detallar komplekti uch kordinatalik eskizga aylanib qoladi, masalan Gerber Technology (AIGU) firmasining Direct dasturida yoki TPC KH Ltd. (Gollandiya) kompaniyasining PPG dasturidagidek<sup>2</sup>. Yoki Assist/bullmer Specialmashinin GmbH&CO, KG (Germaniya) firmasining Vidya dasturi, Bronzwear international Ltd (Isroil), Lectra (Fransiya) va Grafis-Software (Germaniya) kompaniyalarining V-Stitcher dasturidagidek ikki kordinatalik bichilgan detallar komplektidan virtual vizuallashtirilgan kiyim tanasining hajmli (uch kordinatalik) tasviri ishlab chiqiladi.

Mahsulotning hayoti sikli menejmenti mahsulot ishlab chiqilishini amalga oshirilishining muvaffaqiyatli menejmenti vositasidir. U nafaqat dizaynerlar bo`limi, mahsulot ishlab chiqish, xarid, ishlab chiqarish kabi tashqi tijorat tarkibiy qismlarini tarmoq tuzulmasiga birlashtirilishini ta`minlaydi, ta`minotchilar bilan birgalikda samarali ishlash imkoniyatni ham yaratadi, shu jumladan xorijiy agentliklar bilan ham<sup>3</sup>.

## XULOSA VA MUNOZARA

**Bichishda innovatsiyalar.** Takliflarning bu segmentida mashina ishlab chiqaruvchilar klassik tikuvchilik va oyoq kiyimlar uskunalari mo`ljallangan yechimlarni texnik to`qimachilik materiallarni qayta ishlashga moslashtirib qo`yganligi aniq ko`rinib turibdi – masalan Assist/bullmer firmasi tikuvchilik sanoati

<sup>2</sup> Серова Т.М., Афанасьева А.И., Илларионова Т.И., Делль Р.А. Современные формы и методы проектирования швейного производства: Учебное пособие. - М.: МГУДТ, 2014. -283с.

<sup>3</sup> Grace I. Kunz. Apparel Manufacturing: Sewn Product Analysis//Amerika 2014. PrenticeHall, english.

uchun modulli E100-E400 yoyib chiqish mashinalarini taklif etadi. Sodda va arzon qurilma ko`rinishidagi shtangalar bilan yo`naltiriladigan mato rulonlarini qabul qilinishi asosida avtomatik -havo yostig`ill qurilmasi va juftlab yoyish rulonini aylantirish uchun aylanadigan tirgakli modellar taklif qilinmoqda. Universal qo`llanadigan tezkor (120 m/s) mato rulonlarini yoyish uchun novsimon lenta bilan jihozlangan Compact E600 mato yoyib taxlovchi avtomat yordamida 100 kg og`irlikka va 500 mm diametrga moslashtirilgan mato rulonlarini yonidan yo`naltiruvchi moslamalarni xizmat qiluvchilar tomonidan qulay tarzda boshqarilishi mumkin. Matoni yoyishning butun jarayoni, mato chetini tartibga keltirish va matoni taxlash bilan birga avtomatik ravishda nazorat qilinadi.

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Мурыгин В.Е., Чаленко Е.А. Основы функционирования технологических процессов швейных производства. - М.: Компания Спутник, 2011.
2. Arindam Basu. Advances in Silk Science and Technology// England 2015.
3. Grace I. Kunz. Apparel Manufacturing: Sewn Product Analysis//Amerika 2014. PrenticeHall, english.
4. Julie Cole, Sharon Czachor. Professional Sewing Techniques for Designers// Angliya, 2014.
5. Жабборова М.Ш. -Тикувчилик технологияси|| -Т.: -Ўқитувчи||, 2014.
6. Серова Т.М., Афанасьева А.И., Илларионова Т.И., Делль Р.А. Современные формы и методы проектирования швейного производства: Учебное пособие. - М.: МГУДТ, 2014. -283с.